

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE

on the theme " *Architecture is the Abode of Time* "which will be held at
Samarkand State Architecture and Construction University

TURAR-JOY BINOLARIDA QULAY MIKROIQLIM YARATISH MASALALARI

Urganch davlat universiteti "Arxitektura" kafedrası o'qituvchilari Teachers of the "Architecture" department of
Urganch State University

Yusufov Sardorbek Azimboy ugli, Matkarimov Alisher Ismoilovich, Karieva Nazokat Jumanazarovna

Annotatsiya: Maqolada O'rta Osiyo me'morchiligida hozirgacha hovli mikroiklim yaratish manbai sifatida yuzaga kelganligi ma'lum. Mikroiklim yaratish g'oyasi, maqsadi nima ekanligini ilmiy o'rganish uchun O'rta Osiyoda qulay mikroiklim tashkil qilish maqsadida hovlilardan foydalanishning funksional va texnologik jihatlari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: mikroiklim, hovli, ayvon, Xiva uylari, hujra, sufa, yerto'la, "ulug" va "ters" ayvon, turar -joy.

Kirish

Bugungi vaqtda *mikroiklim* omillarini muvofiqlash bo'yicha *turar-joy* qurilishlarining me'moriy-rejaviy yechimlarida mikroiklimini yaxshilashga ko'mak beruvchi yangi rejaviy yechimlar izlab topish zamon talabi hisoblanadi. Shu maqsadda tarixiy shakllangan shahar va qishloq turar joylari va jamoat binolarining xajmiy-fazoviy va tarixiy yechimlarini tahlil qilish va ajdodlarimizning mikroiklimni xosil qilishdagi mahoratini o'rganish zarur.

Mikroiklim – bu odamning yashash muhiti bo'lib, ajdodlarimizning bugungi kundagi me'rosi ya'ni tarixiy obidalarda, turar joy va jamoatchilik binolarini qurishda yashash uchun qulay muhit yaratishga va mikroiklim masalasiga katta e'tibor qaratgan.

Muhokama

O'rta Osiyo me'morchiligida hozirgacha hovli mikroiklim yaratish manbai sifatida yuzaga kelganligi ma'lum. Mikroiklim yaratish g'oyasi, maqsadi nima ekanligini ilmiy o'rganish uchun hovlilarni maqsadlariga ko'ra turlarini ajratish mumkin:

1. Xo'jalik maqsadida bunyod etilgan hovlilar;
2. Sanoat - hunarmandchilik maqsadida o'rab olingan hudud va sahnlar singari hovli turlari;
3. Kishilar yozda dam olishi, istirohati, qolaversa, aholi yashashi uchun mo'ljallangan hovlilar.[1]

Hovlili turar-joy uylari yaxlit holda hovli deb atalishi bilan birga masjid, madrasa, karvonsaroy singari jamoat binolarining sahnleri ham hovli deb ataladi. Bunda ayrim karvonsaroylarda ot-ulov yoki yuk saqlanishi uchun bunyod qilingan, yashash uchun noqulay, atrofi o'rab olingan hududlar ham hovli deb yuritiladi. Yoki eski tegirmon, jamoa molxonalari, atrofi devor bilan o'ralgan bog'lar hududlari, XX asrda vujudga kelgan fabrika-zavodlarning ma'muriy yoki texnologik maqsadda o'rab olingan hududlari ham hovli deb ataladi.

Hovli nafaqat yashashga mo'ljallangan bo'lishi, balki ma'muriy, xo'jalik, texnologik yoki boshqa maqsadlarda o'rab olingan hududlar, maydonlar, sahnlar va shu kabilar ham bu tushunchani anglatadi.

Turar joy, jamoat binolari va boshqa imoratlarda aholi faoliyat ko'rsatishi hamda shu munosabat bilan u yerda yoz paytining issiq sharoitida xonalarda bajariladigan faoliyatning bajarilishi nazarda tutilgan hovlilarni yashash hovlilari deb atasak to'g'ri bo'ladi. Atrofi berk yashashga mo'ljallangan boshqa fazoviy elementlarni esa maydon, hudud, sahnlik deb atasak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mikroiklim yaratish maqsadida, ya'ni bizning O'rta Osiyo issiq iqlim sharoitida xonalarni soyalash, salqinlik yaratish maqsadida. Mikroiklim muammosi alohida element qurilmalarda emas, balki kompleksli ravishda yechiladi, ya'ni uy xonalari atrofida

mikroiqlim yaratish, kunduzgi issiqlikdan, qizishdan saqlash, konvektsiya printsipli asosida xonada o'rtacha havo almashinuvini ta'minlash bilan bu muammo yechilgan.

Natija

Ayvon-yarim yopiq xajm, ya'ni qisman chegaralangan fazoviy shakldir. Xalq me'morchiligida ayvon mavzusi eng keng va turli tuman qo'llanishga ega. Ayvon ochiq joydan (hovlidan) yopiq joyga (xonaga) o'tish shaklida bo'lib, u turar-joy kompleksida me'moriy kompozitsiya o'zagidir. Bu sahn - ayvon - xonaning turli xil shakllari birlashuvida yaqqol ifodalangan. P.SH. Zoxidovning fikricha, O'zbekiston turar-joy me'morchiligining hajm-fazoviy strukturasi uch komponent birlashuvidan tashkil topgan, bular: 1) Sahn ochiq hajm (hovli); 2) Ayvon-yarim yopiq hajm; 3) Xona-yopiq hajm. [2].

Buning natijasida gorizontal va vertikal yo'nalishlarda xonalar (ochiq va yopiq) ning joylashtirilishi va ketma-ketligining mutanosibligi ko'rinadi. Mikroiqlimni yaxshilashga qaratilgan me'moriy usullar: proyomlar iloji boricha taxminan butun devor balandligi bo'ylab qilinadi, bunda yuqorida naqshli panjara, pastida ochiluvchi derazalar bo'lgan. Imkoniyat va zaruriyat bo'yicha turar-joy xonalarida yelvizakli yoki vertikal shamol aylanishiga erishiladi.

Hovliga suv havzalari o'rnatish bilan ham, masalan hovlining markazida joylashgan hovuz va ko'kalamzorlar issiq kun davomida asta-sekin hovli atrofidagi bo'shliqqa namlik va salqinlik beradi.

Hovli mikroiqlim yaratish uchun soya tashkil qilish bo'yicha hovlini soya salqin qilish maqsadida daraxt va butalar, asosan mevali daraxtlar ekiladi, ular ham soya salqin hosil qilib, ham meva beradi. Bundan turli xil kompozitsiyalar yaratish mumkin. Masalan hovli o'rtasida yolg'iz manzarali daraxtlar va boshqalar. O'rta Osiyo an'anaviy uysozligida daraxtlar, gullarni e'tibor va mehr bilan o'stirganlar. Xattoki uyni ham hovlida o'sayotgan daraxtlarni hisobga olgan holda qurishgan. Turar joy xonalari oldidagi qilingan gulzor ko'zni quvontirgan. Rayhon, namozshomgul, chirmoviq singari gullarga katta e'tibor berilgan. Tuprog'i yaxshi uylarda esa uzum, tut daraxti o'tqazilgan, bunda birdaniga uchta maqsadga erishiladi: tut va uzumi yeyiladi, quyosh nurlaridan hovlini himoyalaydi, hovlini bezaydi.

Ajdodlarimiz an'anaviy uyi kompozitsiyasida ikkita komponent - hajmiy (xona) va fazoviy (ayvon) komponentlarining sodda birikmasidan iborat. SHuningdek mamlakatimizning tarixiy shakllangan hududlaridagi turar joy binolarida har xil kompozitsion ko'rinishdagi ayvonlar borki, ko'pincha ular ichki xonani quyoshdan saqlovchi va hovlidan yopiq ichki xonaga kirish uchun oraliq xona bo'lib hisoblanadi. Xiva uylarida "ulug" va "ters" ayvon qo'llanilgan bo'lib, hududning keskin mikroiqlimi bunday ayvon turini paydo bo'lishiga olib kelgan. [3]

Shuningdek ayvonlarni uni hovliga nisbatan fazoviy-rejaviy kompozitsiyasi bo'yicha quyidagi turlarga bo'lish mumkin: 1) gir ayvon (perimetral); 2) bir tomondan ayvon; 3) bir necha tomondan ayvon; 4) turli balandlikdagi ayvon; 5) shiypon.[1]

Turar-joy mikroiqlimiga e'tibor berib, Ibn Sino xonalarni albatta insolyatsiya qilish va shamollatish lozimligini ta'kidlaydi, deraza va eshiklar sharq va shimolga chiqishini, shuningdek sharqiy shamollar va quyosh nurlarining binoning turli tomonlariga kira olishi kerakligini tavsiya qiladi. Issiq iqlim sharoitida turar-joy va jamoat binolarining fasadlari shimol va janubga qarab qurilishi kerak (kenglik orientatsiyasi). Binolarning kenglik orientatsiyasi quyosh radiatsiyasini birmuncha kamaytiradi va kerakli kunduzgi yorug'lik sharoitlarini buzmasdan xonaning tabiiy ventilyatsiyasini yaxshilashga olib keladi. Issiq joylarning xarakterli xususiyati shundan iboratki, bu joylarda boshqa joylarga nisbatan havo ochiqligi uch - to'rt marta yuqori bo'ladi. Tushlik paytida quyosh baland turadi va uning to'g'ri nurlari tomni va cherdakni qizdiradi, bularni cherdakni ikki tomonidan shamollatish yo'li bilan, tom ustidan soya soluvchi tentlarni o'rnatish yo'li bilan yo'qotish mumkin [4].

O'rta Osiyo o'rta asr me'morchiligi nazariyasi va tarixining tadqiqotchilari tomonidan turar joy binolarining geografik tomonlarga orientatsiyasi ularning hajm-loyihaviy yechimiga ta'sir ko'rsatganligi isbotlangan. Mikroiqlimni yaxshilash uchun qulay sharoitlarni yaratish omillaridan biri bo'lib hisoblanib, u turar joyning har xil turlarining (Buxoroda "tobistoni" va "zimistoni" xonalari), uning ba'zi bir loyihaviy elementlarining (Xivada "ulug" va "ters" ayvonlar), texnik qurilmalarning (panjaralar, soyabon va ayvonlar) vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatgan [5].

Xulosa

Xulosa qilib quyidagilarni aytish mumkin, biz hovlilarni ularning foydalanish maqsadi, qo'llanilish sohalari, kompozitsion jihatdan turlari, qo'shimcha me'moriy vositalarni qo'llanilishi, hovlida mikroiqlim yaratish uchun soya tashkil qilish bo'yicha fikr yuritdik, turar-joy hovlilari, dastlabki ichki va tashqi hovlilarni tahlil qildik. Qadimda bu vazifani madrasa va ularning kompozitsiyasiga o'xshagan hovlili karvonsaroy, jome' masjidi singari imoratlarda tirgaksimon kirish yo'llari bajargan. Ba'zi bir boshqa inshootlar, jumladan saroylarda va mahobatli jamoa binolarida hovlida o'rnatilgan hovuz yoki favvoralar mikroiqlim manbai bo'lgan. Yana jamoa binolarida hujralar oldidagi ravoqlar ham shunga qaratilgan bo'lgan. Turar-joylarda esa ayvonlar, xonalar balandliklarining turlicha qilinishi, sufalar va yerto'ladan chiqadigan havo aeratsiya manbai bo'lgan. Ochiq maydon va jamoa hovlilarida daraxt hamda hovuz shu maqsadda qo'llanilgan.

Adabiyotlar:

1. Me'morchilik va qurilish muammolari, № 3, 2010 y. Saloxiddinova D.Z. Hovlilarni qo'llashning funktsional-texnologik tamoyillari, 40-45 b.

2. Зохидов П.Ш. Традиции народных зодчих Узбекистана. Международный конгресс антропологических наук (Москва август 1964 г.) Издательство «Наука».
3. Кариева Н.Ж., Ибадуллаев И. Улучшение жилищного строительство в сельской местности Хорезмского оазиса. Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси – 3/2016. 11-б.
4. Римша А.Н. Градостроительство в условиях жаркого климата. Москва “Стройиздат”, 1979 г., 309 с.
5. Строительство и архитектура Узбекистана № 11, 1978 г. Ахмедов М.К. Планировочная ориентация средневековых архитектурных ансамблей и некоторые вопросы теории архитектуры Средней Азии, 12-14 с.